

CHO'L PONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA PSIXOLOGIK TASVIR: USUL VA VOSITALAR

*Ahmadjonova Muslimaxon Anvarjon qizi
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
O'zbek tili yo'naliши 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cho'lpon adabiyotiga mansub "Kecha va Kunduz" romanida tasvirlangan usul hamda vositalar va badiiy adabiyotning eng nozik, o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu, psixologizm, u inson harakterini, ichki olamini ruhiyati orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Kecha va kunduz romani, usul va vositalar, badiiy unsur, Zebi, Qurvonbibi, Razzoq so'fi, psixologik tasvirlar, dialog, qahramonlar

Insonning botiniy olami suhbatlarda, muzokaralarda u yoki bu darajada zohir topishi shubhasizdir. Badiiy adabiyotda bu jarayon dialog va monologlar orqali namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotida inson ichki kechinmalari orqali siyosiy-ijtimoiy muhitning ma'naviy-axloqiy muammolarini ochib berish Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romanida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Cho'lpon o'zbek adabiyotiga o'z asarlari bilan yangicha ruh, yangicha uslub, yangi nafas, samimiyyat, hayotiylik va harorat olib kirgani ayni haqiqat. "Kecha va kunduz" romanida ijodkor psixologizmning turli usullarini qo'llab, tariximizning g'oyat murakkab, mas'uliyatli bir davrini, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ziddiyatlar kuchaygan bir paytni aks ettirgan.

XIX asr oxirlariga kelib, siyosiy o'zgarishlar dinamikasi oshib, sinfiy kurash, mustamlakachilik muammolari avj oladi. Davr qahramonlari obrazini yaratishda ijodkor fojeaviy, chuqr xarakterlar psixologizmini qo'llaydi. Uning qahramonlari ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-falsafiy izlanishlar orqali haq yo'lga intiladi, o'ylaydi, fikrlaydi, o'z-o'zini tergaydi, o'z-o'zini rag'batlantiradi, hayot haqiqatini izlaydi, dunyoqarashi kengayadi, o'z nafsi bilan kurasha oladi, ongi o'sadi, o'z-o'zini inkor etadi, natijada qalb dialektikasi rivojlanadi.

Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida psixologizmning mavjud usullaridan unumli foydalangan. Shunga qaramay, asarda ratsional-tahliliy, tanqidiy psixologizm yetakchiligi yaqqol seziladi. Bunga sabab yaratilgan obrazlarning murakkabligi va ziddiyatlarga boyligidir. Emotsional tahlil jarayonida qahramonlar o'ylaydi, fikrlaydi va sodir etilgan harakatining mantiqiy zanjirini tuzadi. Holatning mantiqiy yakuni tanqid bilan boshlanadi. Bunga misol qilib, asarda chuqr psixologizm bilan boyitilgan Miryoqub obrazini olish mumkin. Uning xarakterida aql-farosat, epchillik, har qanday

vaziyatdan chiqsa olish, o‘ziga ishonch kabi xususiyatlar bor. Emotsional psixologik tahlil jarayonida uning ruhiyatida ikkiga bo‘linish kuzatiladi. Biri Miryoqub – tergovchi, ikkinchisi esa javobgar. O‘n bir betga cho‘zilgan ushbu psixologik sud jarayonidan Miryoqubda ichki tahlil, ichki iqror kuchliligini ko‘ramiz. U o‘z-o‘zini aldashni xohlasa ham aldolmaydi. Shuning uchun ma’naviy-axloqiy olamiga xos barcha xususiyatlarni qo‘rmasdan tan oladi, iqror bo‘ladi. Cho‘lpon bu badiiy detalning barcha sinonimik variantlarini ishlatsa: chiroq, fonar, fonus, elektrik, moychiroq... Turli vaziyat, sharoit, holatda bu detalga “xira, nursiz, madorsiz” kabi sifatlar qo‘shib ishlatsa. Nursiz chiroq, xira fonus, madorsiz elektrik...

Cho‘lpon o‘z asarida tashqi psixologik holat orqali personajlarining psixologik portretlarini yanada yorqinroq tasvirlagan. Masalan, Razzoq so‘fi tug‘ilishidagi hangomani olaylik. U doya kampir tilidan so‘zlanadi: “...Aylanay mehmon, kimdan xafa bo‘lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog‘ingizni ochsangiz-chi! Yorug‘ dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq kuling! Kulimsirang! Iljaying!” Badqovoqlik shtrixi orqali Razzoq so‘fining portreti yaratilgan. Bunday holatni ayollar obrazida ham kuzatish mumkin. Masalan, “...Qurvonbibining ko‘zlar qizarib, qovoqlari ko‘kargan edi...” Ayolning kechasi bilan tinmay, ezilib yig‘lagani ma’lum. Mariyaning psixologik portretida doimiy labini tishlash shtrixi o‘zi xohlamagan azobga bardosh berishini anglatadi: “...Yosh juvon boshini quyi egib, yuzini chapga burgan, borgan sari qaltirashi kuchaygan, lablarini o‘tkir va oppoq tishlari o‘rtasida qisardi...”

Cho‘lpon xarakterlarning tashqi tasviri, ko‘z qarashlari, yuz o‘zgarishlari, mimika, plastika yordamida qahramonlarning ichki psixologik holatidan voqif etadi. Ko‘p hollarda muallif g‘amga botgan tashvishli yuzlarda tabassum yoyilishini mahorat bilan tasvirlagan: “...kelinning yuzlarida xuddi shu paytda bir yoqimli kulimsirash paydo bo‘lgan edi”. Tashqi psixologik holat ba’zida qalb tubida yotgan sirli tuyg‘ularning bir soniyalik paydo bo‘lishini yoritishi mumkin.

Asarda muallif hikoyasi va ruhiy holatning u tomonidan tasvirlanishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ruhiy holat tasviri asosida mantiqiy fikr zanjiri bo‘lmaydi. Muallif hikoyasining asosini esa fikriy ketma-ketlik tashkil etadi. Har qanday ruhiy holat to‘g‘risida fikr yuritiladi va ular ma’no-mantiq jihatidan bog‘lanadi.

Cho‘lpon qahramonlarning ichki kechinmalarini, o‘y-fikrlari, xotiralari, kundalik qaydlari ham muallif tilidan bayon etiladi. Muallif o‘z qahramonlarning barcha sir-asrorlaridan voqif. Asarda ichki monologlar muallif hikoyasi bilan qo‘shilib ketgan. Bu psixologizmning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. U orqali inson ongingin, xotirasining barcha burchaklariga sayr etish mumkin.

“Kecha va kunduz” asari chuqur psixologizmga ega asar. Cho‘lpon yashagan davr qiyinchiligi asarda o‘z aksini topgan, shuning uchun roman psixologizmi

murakkabligi, ziddiyatlarga boyligi, kontrastligi bilan qahramonlarning ma’naviy-axloqiy, g’oyaviy-falsafiy, hayotiy ideallarini izlashda namoyon bo‘ladi.

Xarakterlar psixologizmi badiiy detallar yordamida yanada yorqinroq ko‘zga tashlanadi. Ular qahramon ichki dunyosining eng qorong‘u burchaklarini yoritib, qalb dialektikasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Abdulhamid Cho'lpon“. *turklib* (9-aprel 2013-yil). Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
2. Cho'lpon asarlarining amerikalik tarjimoni: “Kecha va kunduz”ning “Kunduz”i yozilmagan“ (o'zbek). *Daryo* (6-avgust 2019-yil). Qaraldi: 6-aprel 2023-yil.
3. Abdulhamid Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanidagi Ijtimoiy-Insoniy munosabatlar lisoniy tahlil obekti sifatida“ (o'zbek). 7-aprel 2023-yil.